

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
TERMIZ FILIALI**



**“TIBBIY TA’LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR - 2023:
DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR”
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**Материалы Республиканской научно-практической конференции
“ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ-
2023: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ”**

**Proceedings of the Republican scientific-practical conference
“INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN MEDICAL EDUCATION-2023: CURRENT
PROBLEMS, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS”**

07 yanvar 2023 yil



Termiz - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
TERMIZ FILIALI**



**“TIBBIY TA’LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR-2023:
DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR”
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**“ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ-
2023: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ”
Материалы Республиканской научно-практической конференции**

**“INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN MEDICAL EDUCATION-2023:
CURRENT PROBLEMS, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS”
Proceedings of the Republican scientific-practical conference**

7 январ 2023 йил



TERMIZ - 2023

Ushbu ilmiy ishlar to'plamida Respublika oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy ish natijalari e'lon qilingan . Anjuman materiallari TTATF Termiz filiali Kengashining qarori asosida nashrga tavsiya etildi (Bayonomasi № 6, 31.01.2023 yil).

Mas'ul muharrir:

1. F.A.Otamuradov – t.f.d. TTA Termiz filiali direktori.

Tahrir hay'ati:

2. M.I.Shamsutdinova - t.f.d. professor TTA Termiz filiali ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari ;
3. YO.B.Gulyamov - t.f.n., dos. TTA Termiz filiali ukuv ishlari buyicha direktor o'rinbosari;
4. O'R.Fayziyeva - TTA Termiz filiali Davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari;
5. D.B.Aymuratova – TTA Termiz filiali ilmiy-tadqiqotlar, innovasiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i v.v/b;
- 6.B.I.Tumisheva - TTA Termiz filiali Kadrlar bo'limi bosh muhandisi;
- 7.M.A.Ergashev - TTA Termiz filiali Kengashi kotibi;

To'plamda chop etilgan ma'lumotlar va raqamlar mualliflar tomonidan taqdim etilgan. Nashriyot va tashkiliy qo'mita chop etilgan ma'lumotlar xato va kamchiliklari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.

OTM YANGI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI TRAVMATOLOGIYA-ORTOPEDIYA FANINI O'QITISHDA KLINIK ORDINATURA YO'NALISHIDA QO'LLASHNI SAMARADORLIGI.

A.B. Bolg'ayev, Y.B. Gulyamov,
Toshkent tibbiyot akademiyasi termiz filiali

Oliy tibbiy ta'lim tizimiga yangi uslubiy yondashuvlarni joriy etish va izlash bo'lajak travmatologiya-ortopediya mutaxassislarning samaradorligi va sifatini oshirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lim jarayoni yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish hisobiga tibbiyot fanlarining doimiy tabaqalanishi, shuningdek, hayotning ko'plab sohalari, xususan, zamonaviy fan va texnologiya taraqqiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarning miqdori va sifatining barqaror o'sishi hisobga olingan holda travmatologiya va ortopediya fani bo'yicha mutaxassislarni o'qitish juda mas'uliyatlidir. Bularning barchasi klinik ordinatura talabarlari tomonidan o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni doimiy va sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Travmatologiya va ortopediya kafedrasida fanni o'qitish dasturiga muvofiq quyidagi vazifalar qo'yiladi: klinik simptomatologiya-tayanch-harakat a'zolarining eng keng tarqalgan shikastlanishlar va ularni zamonaviy usullarda diagnostika qilishni o'qitish va o'rganish; travmatik shikastlanishlarni tabiati va davolashning xususiyatlarini o'rganish; travmatik shikastlarda birinchi yordam ko'rsatish bosqichini o'rganish, shikastlangan bemorlarning hayotiga xavf tug'diradigan jiddiy sharoit va asoratlarni o'rganish hamda oldini olish; ortopedik kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolashning asosiy mezonlari, xususiyatlari va ixtisoslashtirilgan usullariga o'rgatish; travmatologik-ortopedik bemorlarni tekshirish va davolash uchun zarur bo'lgan asosiy amaliy ko'nikmalarni egallash. Bu esa klinik ordinatura talabalarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini egallash, yangi tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Klinik ordinatura talabarlari turli xil vaziyatlarda bemorlarga differensial yondoshuv, yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va davolashning yangi usullarini ishlab chiqishni talab qildi. Shu sababli, kafedrada travmatologiya-ortopediya fanini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo'llash va tibbiyot sohasida samarali foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Ushbu texnologiyalarni tibbiyot sohasiga tadbiq etilishi klinik ordinatorlarni bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish, klinik fikrlashni, muammoli-vaziyatli masalalarni ta'lim texnologiyalari jarayonida qo'llash, nazariy va klinik bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llash hamda ularning klinik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

VITAGEN TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASI

*Raximov S.S., Axmedov X.S., Rajabov B.M., Gulmanov I.D.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.*

Vitagen pedagogika – o'quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanishga asoslangan pedagogika. Vitagen ta'lim – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida haqiqiy hamkorlik o'rnatilishiga, ta'lim olish va mustaqil o'qishning qo'shilishiga, sub'ekt-ob'ekt munosabatning sub'ekt-sub'ekt aloqaga aylanishiga qaratilgan amaliy yo'l. Hayotiy (vitagen) tajriba – shaxs mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotira zahiralarida saqlanadigan, adekvat vaziyatlarda (talab etilganda) dolzarb bo'la oladigan vitagen ma'lumot. Vitagen tajriba inson tomonidan boshidan o'tkazgan, idrok xotirasi, hissiy xotira va xulqiy xotira bilan bog'liq va uning uchun yetarlicha qiymatga ega bo'lgan fikrlar, tuyg'ular, harakatlar qotishmasi.

Vitagen ta'lim – ta'lim maqsadlarida shaxsning hayotiy tajribasini, uning intellektual-psixologik potentsialini aktallashtirishga asoslangan o'qitish usuli. Vitagen ma'lumotning vitagen tajribaga aylanishi bosqichlari: birinchi bosqich – differentsiallashtirilmagan, ajratilmagan vitagen ma'lumotni birlamchi idrok etish; ikkinchi bosqich – baholovchi-

filtrlovchi (shaxs, dastlab filogenezda, ya'ni umuminsoniy gnostik pozitsiyadan, keyinchalik ontogenezda, ya'ni shaxsiy ahamiyatlilik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda olgan ma'lumotning ahamiyatliligini aniqlaydi, ma'lumotlarni saralash ontogenetik sodir bo'ladi); uchinchi yo'l-yo'riq ko'rsatadigan bosqich (shaxs, o'z-o'zidan, yoki ongli ravishda ma'lum bir ma'lumotni taxminiy "saqlash" muddatgacha eslab qolishni belgilaydi, saqlash muddatlari ma'lumotning ahamiyatliligi, hayotiy va amaliy maqsadga qaratilganligi bilan aniqlanadi – bu ma'lumotning o'zlashtirilganlik darajasini ham aniqlab beradi). Ma'lumotning o'zlashtirilganlik darajalari:

1-daraja – operatsion (sust, "har ehtimolga qarshi" eslab qolishga yo'l tutish, ushbu ma'lumot ta'lim jarayonida shaxsning o'zini rivojlantirishida eng kam qiymatga ega);

2-daraja – funktsional (ma'lumotni ancha uzoq vaqtga eslab qolishga yo'l tutish – tanlov vaziyatlarida ishlatiladi);

3-daraja – tayanch (uzoq muddatga xotirada saqlash, ta'lim jarayonida o'zini rivojlantirishda eng katta ahamiyatga ega). Darajalar o'zaro ta'sir qilishi, biridan biriga o'tishi, turli ahamiyatlilik darajalarga ega bo'lishi mumkin.

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-sonli oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va odam anatomiyasi, operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedralarida integratsiya doirasida vitagen ta'lim texnologiyasi keng qo'llaniladi. Misol tariqasida ankilozlovchi spondilit mavzusini o'rgatishda avval bo'g'imlarning anatomiyasi, topografik anatomiyasi, klinik anatomiyasi malakali anatom va topanatom professor-o'qituvchilari tomonidan yoritib beriladi, vaziyatli masalalar ko'rib chiqiladi. So'ngra ichki kasalliklar kafedrasida professor-o'qituvchilari o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda ankilozlovchi spondilit klinikasi, diagnostikasi, davolash masalalari haqida ma'lumot berishadi. Mag'ulotning muhokama qismida talabalar faol ishtirok etishadi va qo'lga kiritgan nazariy hamda amaliy bilimlarini o'qituvchilar bilan birgalikda muhokama qilishadi. Bunda "BBB"-jadvali, "Klaster" va "Debat" texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Vitagen ta'lim berish usuli ham ayrim o'quvchilar, ham jamoaning intellektual potentsialini aniqlash, qo'lga kiritgan ma'lumotlarni amaliy ishlarda, muammoli vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Vitagen ta'lim texnologiyasini qo'llash talabalarning hayot tajribasi va vitagen tajribasiga tayanib, ma'lumotlarning mohiyati kengligi va amaliy faoliyatda zarurligi haqidagi tushunchalarni shakllantiradi.

HOZIRGI ZAMON TALABLARI ASOSIDA TIBBIYOT OTM TRAVMATOLOGIYA- ORTOPEDIYA FANINI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR EGALLAGAN AMALIY KO'NIKMALARNI TIBBIYOTDA QO'LLASH.

*Y.B. Gulyamov, Y.R. Joynarov
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Hozirgi zamonaviy sharoitda yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonlariga tadbiiq etish Oliy tibbiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarni o'qitishning eng muhim bosqichi klinik diagnostika bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, qo'shimcha obektiv tadqiqot usullari, shu jumladan invaziv usullar yordamida aniqlangan ishonchli va ehtimoliy simptomlarni aniqlash hisoblanadi. Bakalavriyat yo'nalishi 4-kurs talabalarini «travmatologiya va ortopediya» fanini o'qitishda fanga bo'lgan qiziqishlari, fundamental bilimlarini oshirish, amaliy ko'nikmaga ega bo'lishlari va kelajakda malakali shifokor bo'lib yetishishlarida talabalarini dastlabki mashg'ulotlarini kafedra tarixi, professor o'qituvchilarning ilmiy yo'nalishlarda erishgan

МУНДАРИЖА

№	Муаллифнинг И.Ф.О.	Мақола ва тезислар мавзуси	Санифаси
1 - Sho'ba:KLINIK FANLARNI O'QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR : DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR			
1	P. P. Rasulova, B. B. Gafjarov, J. X. Normurodova	Ички касалликлар” фанида “симптоматик артериал гипертензиya” мавзусидаги амалий машг’улотни о’қитишда инновацион технология усулларида фойдаланиш	8
2	Rajabov B.M., Raximov S.S., Gulmanov I.D. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O’zbekiston.	Juftlikda mashq qilish interfaol texnologiyasi	9
3	A.B. Bolg’Ajev, Y.B. Gulyamov, Toshkent tibbiyot akademiyasi termiz filiali	OTM yangi zamonaviy texnologiyalarni travmatologiya-ortopediya fanini o’qitishda klinik ordinatura yo’nalishida qo’llashni samaradorligi.	10-11
4	Raximov S.S., Axmedov X.S., Rajabov B.M., Gulmanov I.D. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O’zbekiston	Vitagen ta’lim berish texnologiyasi	11-12
5	Y.B. Gulyamov, Y.R. Joynarov Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali	Hozirgi zamon talablari asosida tibbiyot otm travmatologiya-ortopediya fanini o’zlashtirishda talabalar egallagan amaliy ko’nikmalarni tibbiyotda qo’llash.	12-13
6	A.T.Ashurov, X.C.Xudoinazarov Термезской филиал Ташкентской медицинской академии Кафедра медицинской биологии и гистологии.	Оптимизация и совершенствования методов обучения студентов в условиях кредитно-модульной системы	12-13
7	<i>A.T.Ashurov, X.C.Xudoinazarov</i> Термезской филиал Ташкентской медицинской академии Кафедра медицинской биологии и гистологии	Инновационное методі и технологии обучения в медицинском вузе, как средство повышения эффективности преподавания гистологии	13-14
8	N.Z.Nazarova, A.Y.Baxodirov Toshkent Tibbiyot Akademiyasi	Travmatologiya Va Ortopediya Magistratura Yo’Nalishini O’Qitishda O’Quv Materiallarini O’Zlashtirish Samaradorligini Oshirish	14-15
9	Шарипова Фарида Салимджановна Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали	Тиббий та’лим фанларини о’қитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг афзалликлари	15-16
10	Шарипова Ф.С. Қо’нғ’иротова А.И. Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали	Тиббий биологилари о’қитишда инновацион та’лим методикаси	17-18
2-SHO’BA:FUNDAMENTAL FANLARNI O’QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR:DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR			
11	Ermatova .R.O.-Senior teacher Termez branch Tashkent medical academy Xolmatova. D.B.-Student, Termez State Pedagogical Institute.	Teaching medical compound words with interactive methods	18-19
12	Biykuzieva A.A., Xo’jaxonova X.I. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O’zbekiston	Zamonaviy ta’limda ibn sino ta’limotining o’rni	19-20
13	Xursanov Sherzod Ulaboyevich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti	Tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti talabalarining kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyasini eksperimental aprobatsiya qilish natijalari	20-23
14	Xursanov Sherzod Ulaboyevich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti	Talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyasini loyihalashtirish	23-28
15	Чориев Нуриддин Хо’шбоқович ТТА Термиз филиали “Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси ассистенти	O’zbekistonning eng yangi tarixi moduliда инновацион технологияларнинг о’рни	28-29
16	Ermatova.R.O – TTATF Ijtimoiy- Gumanitar fanlar kafedrası katta o’qituvchisi Paygamova. Z.X.-TTATF Ijtimoiy - Gumanitar fanlar kafedrası katta o’qituvchisi	Тиббиёт соҳасида тиббий терминларнинг аҳамияти ва долзарблиги	29-30
17	Atamurodova Munira Maxammadievna (TTA TF tadqiqotchisi, munira.atamuratova.91@gmail.com)	Oliy ta’lim talabalarining muloqot ko’nikmalarini metodik rivojlantirishda zamonaviy usullar	30-31
18	Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası katta o’qituvchisi.	Ta’limda kompyuterni o’rganish muammosi va uning tarkibi.	31-34